

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YO'L BELGILARIGA OID TERMIN BIRIKMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATI

*Xo'shbaqova Nasiba Nurqobil qizi, Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti o'qituvchisi*

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕРМОСЛОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ДОРОЖНЫМ ЗНАКАМ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Xushbakova Nasiba Nurqobil kızı, преподаватель
Денауского института педагогики и предпринимательства*

STRUCTURAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF TERM COMPOUNDS RELATED TO ROAD SIGNS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

*Khushbakova Nasiba Nurqobil kizi, Teacher at Denau institute of
pedagogy and entrepreneurship*

Annotatsiya: Ushbu maqolada terminlar haqida nazariy fikr yuritilib, terminologiya sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan o'zbek tadqiqotchilari va ilmiy ishlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Asosan, ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l belgilariga oid ikki tarkibli terminlarning strukturasi va semantikasi analiz qilingan. Shu sohadagi ikki til terminlar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, yo'l belgilari, termin birikmalar, struktur-semantik, leksik-semantik, so'z birikmasi, ikki tarkibli termin birikmalar.

Abstract: In this article, a theoretical opinion about terms is given, and brief information is given about Uzbek researchers and scientific works that conducted scientific research in the field of terminology. Basically, the structure and semantics of two-component terms related to road signs in English and Uzbek languages were analyzed. Similarities and differences between the terms of the two languages in this field have been considered.

Key words: terminology, road signs, term combinations, structural-semantic, lexical-semantic, phrase, two-component term compounds.

Аннотация: Помимо теоретического взгляда на слова, в данной статье представлен краткий обзор узбекских исследователей и научных публикаций, которые провели терминологические исследования. По сути, сложные и двухкомпонентные фразы, относящиеся к дорожным знакам, в английском и узбекском языках были исследованы на предмет структуры и значения. В этой книге исследуются параллели и расхождения между терминологией двух языков.

Ключевые слова: терминология, дорожные знаки, терминосоочетания, структурно-семантические, лексико-семантические, фраза, двухкомпонентные терминальные соединения.

KIRISH. Til yillar osha eskirmaydigan, balki yangilanib boraveradigan hodisa bo'lganligi uchun o'rganilishi kerak bo'lgan tomonlari paydo

bo'laveradi. Shu bilan bir qatorda, terminologiya bo'yicha ham yuzlab tadqiqotchilar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ammo, ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l



<https://orcid.org/0009-0002-0414-176X>

e-mail:

nasiba.khushbakova.93@mail.ru

belgilariga oid terminlar yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun biz ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l belgilariga tegishli terminlar va termin birikmalarni struktur-semantik jihatdan o'rganishga harakat qildik. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillariga oid yo'l belgilari termin birikmalarining struktura-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ilmiy ishning dolzarbligi xalqaro transport tizimida muqobil muloqotni ta'minlash, bu sohada tarjima jarayonlarida duch kelinishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish hamda terminologik uyg'unlikni shakllantirishdan iborat. Tadqiqotda yo'l belgilari terminlarining leksik-semantik xususiyatlari va ularni qo'llashdagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rib chiqishga harakat qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Izlanishimiz jarayonida tabiiy ravishda bir savol tug'iladi. Biz ishlatadigan terminlar, aslida, oddiy so'zlardan qanday farq qiladi? Rus olimi G.O.Vinokur so'z va termini farqlash va ajratish jarayonida ularning leksik-semantik, funksional-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratib, ikki xil yondashuv asosida izohlagan: 1) *terminlarning ma'nolaridagi* (maxsus soha ga nisbatan) xoslik, ma'no chegaralaridagi aniqlik va ixchamlik; 2) *intellektual shaffoflik, majoziy va hissiy jihatdan neytrallik*[4]. Olimning fikrlariga qo'shilgan holda R.A.Budagov: "*Termin – qat'iy aniq fikr, termin bir ma'nolilikka intiladi*"[2], – deb ta'kidlaydi. Olim termin va so'z nisbatiga yanada teranroq tavsif bergan. Boshqa bir us olimi A.A.Bragina "*Termin so'zlardan nafaqat bir ma'nolilikka moyilligi bilan farqlanadi, balki his-tuyg'uni ifodalovchi xususiyatlardan "mahrumligi" bilan ham ajralib ham turadi* [3], – deya ta'kidlanadi. Ushbu fikrlar tahlili asosida terminlar yengil va kuchli ta'sirchanlik, ijodiy yorqinlik, o'tkirlilik, noziklik, his-tuyg'u kabi xususiyatlarni o'zida mujassam ettirmaydi, deyish maqsadga muvofiq, albatta. Tilshunos olimlardan biri X.Arziqulov ham fan va texnikaning sohaga ta'sirini hisobga olib, ilmiy tadqiqotida terminlar haqida o'ziga xos noyob fikrlarini havola etadi: "*Har qanday so'z va so'z birikmasi, hatto tinish belgilari, relyatorlar ham terminlar vazifasini bajaradi*"[1].

MUHOKAMA. Ushbu maqolada turli xil lingvistik metodlardan foydalanilgan. Jumladan, rus olimi G.O.Vinokur so'z va termini farqlash va ajratish jarayonida ularning leksik-semantik,

funksional-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratib, ikki xil yondashuv asosida izohlagan va uning fikrlarini keltirgan holda *kuzatuv metodidan* foydalandik. Bundan tashqari ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l belgilariga oid terminlarning leksik-semantik jihatdan analiz qilish jarayonida *chog'ishtirma metodidan* foydalandik. Misol uchun: ingliz tilidagi ikki tarkibli termin birikmalarining aksariyat qismi *sifat + ot* va *ot + ot* (*steep ascent, road work*) so'z turkumlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lsa, o'zbekcha ikki tarkibli termin birikmalardan esa *sifat + ot* (*tik balandlik*) ko'rinishidagi termin birikmalar ustunlik qiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l belgilariga oid terminlarning so'z turkumlari bilan birgalikda hosil bo'lish jarayonlari orqali *struktur tahlil* metodidan foydalandik. Masalan, ingliz tilidagi "give way" (fe'l + ot) va o'zbek tilidagi "yo'l bering" (ot + fe'l) tuzilmalari tahlil qilingan. **Etimologik tahlil orqali esa o'zbek tilidagi ba'zi terminlarning kelib chiqishi hamda tarkibiy qismlarining shakllanishi ko'rib chiqildi.** Masalan, "avtomagistral" yoki "bojxona" so'zlari o'z ma'nolarini qayerdan olinganligi tahlil qilingan.

NATIJALAR. Quyida o'zbek tilidagi yo'l belgilariga oid ikki tarkibli terminlarni keltirib o'tamiz: *yo'l bering, ko'tarma ko'prik, sohilga chiqish, xavfli burilish, tik nishablik, tik balandlik, sirpanchiq yo'l, noteks yo'l, yo'lning torayishi, ta'mirlash ishlari, boshqa xavf-xatarlar, asosiy yo'l, kirish ta'qiqlangan, harakatlanish ta'qiqlangan, nazorat joyi, qayrilish ta'qiqlangan, to'xtash ta'qiqlangan, aylanma harakatlanish, velosiped yo'lkasi, piyodalar yo'lkasi, harakatlanish chizmasi, yo'nalishlar ko'rsatkichi, manzil nomi, masofalar ko'rsatkichi, to'xtash chizig'i, reversiv harakatlanish, ajratuvchi bo'lak, harakatlanish bo'lagi, majburiy to'xtash, qatnov qismi, quvib o'tish, yondosh hudud, yo'l harakati, transport vositasi, to'xtab turish.*

Xuddi shu sohada ingliz tilidagi ikki tarkibli termin birikmalar esa quyida keltirilgan: *give way, other dangers, road work, parking place, side wind, falling rocks, turning left, turning right, slippery road, unevenroad, opening (swing) bridge, wild animals, steep ascent, staggered junction, traffic merges, hump bridge, zebra crossing, keep left, minimum speed.*

Ingliz va o'zbek tilidagi ikki tarkibli termin birikmalarning strukturasi

Ingliz termin birikmalar	Tuzilishi	O'zbek termin birikmalar	Tuzilishi
Give way	V+N-fe'l+ot	Yo'l bering	Ot+Fe'l
Other dangers	Determiner+N -Sifat +ot	Boshqa xavf-xatar	Sifat +Ot
Parking place	N+ N-Ot+Ot	To'xtab turish joyi	Fe'l+Fe'l+Ot
Road work	N+N-Ot+Ot	Ta'mirlash ishlari	Fe'l+Ot
Side wind	N+N-Ot+Ot	Yonlanma shamol	Sifat+Ot
Turn left	V+Adj-Fe'l+Sifat	Chapga burilish	Sifat+Fe'l
Falling rocks	Adj+N-Sifat+Ot	Toshlar tushishi	Ot+fe'l
Slipper yroad	Adj+N-Sifat+Ot	Sirpanchiq yo'l	Sifat+Ot
Uneven road	Adj+N-Sifat+Ot	Notekis yo'l	Sifat+Ot
Steep ascent	Adj+N-Sifat+Ot	Tik bandlik	Sifat+Ot
Wild animals	Adj+N-Sifat+Ot	Yovvoyi hayvonlar	Sifat+Ot
Opening (swing) bridge	N+N-Ot+Ot	Ko'tarma ko'priq	Sifat + Ot

Yuqorida ko'rib turganimizdek, ingliz tilidagi ikki tarkibli termin birikmalarning aksariyat qismi **sifat + ot** va **ot + ot** (*steep ascent, road work*) so'z turkumlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lsa, o'zbekcha ikki tarkibli termin birikmalardan esa **sifat + ot** (*tik balandlik*) ko'rinishidagi termin birikmalar ustunlik qiladi. Bu termin birikmalar alohida-alohida kelganda boshqa soha termini bo'lib kelishi mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l belgilariga oid termin birikmalarni struktur-semantik jihatdan o'rganib, terminlar maxsus sohalarga oid bo'lib, ular ma'noni aniq beradi va funksional neytral jihatdan oddiy so'zlardan farq qiladi, degan xulosaga keldik. G.O.Vinokur va R.A.Budagovlarning ta'kidlaganidek, terminlar hissiy ta'sirdan xoli, qat'iy ma'noni ifodalovchi birliklardir. Bundan tashqari ingliz tilidagi ikki tarkibli termin birikmalar, asosan, *sifat + ot* va *ot + ot* tuzilmalaridan iborat. Misol: *steep*

ascent (sifat + ot), *road work* (ot + ot). O'zbek tilidagi ikki tarkibli termin birikmalarda esa *sifat + ot* tuzilmalari ustunlik qiladi. Misol: *tik balandlik* (sifat + ot), *ta'mirlash ishlari* (ot + ot).

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Арзикулов Х. Семантические проблемы в терминологических системах французского языка (на материале онкологической терминологии). Автореф. дис...канд.филол.наук. – Л.: 1980. – 24 с.
2. Будагов Р.А. Человек и его язык. – М.: МГУ, 1976. – С.176.
3. Брагина А.А. Значение и оттенки в термине. // Терминология и культура речи. – М.: Наука, 1981. – С. 37–38.
4. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии / Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Т. I. Классика терминоведения. Очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 218 – 284.